



O‘ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI TABU SO‘ZLARNING IJTIMOYIY SABABLARI

SamDChTI “Ingliz tili leksikologiyasi va
stilistikasi” kafedrasida katta o‘qituvchisi
Shermamatova Zaynab Azimjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi tabu so‘zlarning paydo bo‘lishiga ijtimoiy omillar nuqtai nazaridan yondashiladi. Tabular jamiyat axloqiy qadriyatlari, diniy e‘tiqodlar va madaniy an‘analarning natijasi sifatida tahlil qilinadi. Maqolada tabu so‘zlarning ijtimoiy vazifasi, ularning jamiyatdagi nutq madaniyati bilan bog‘liqligi hamda evfemizmlar orqali yumshatilish mexanizmlari misollar asosida ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: tabu, evfemizm, madaniyat, axloq, nutq madaniyati, ijtimoiy norma.

Til jamiyatning madaniy, axloqiy va diniy qadriyatlarini ifoda etuvchi ijtimoiy hodisadir. Har bir tilda ayrim so‘zlar yoki iboralar jamiyat tomonidan nomaqbul, uyatli yoki muqaddas deb topilgan holatlar mavjud. Bunday so‘zlar **tabu** deb ataladi. Tabu qadimdan inson hayotining barcha sohalarida diniy marosimlarda, kundalik nutqda, siyosiy va ijtimoiy muhitda o‘z ifodasini topgan.

Polineziya xalqlarida shakllangan “tabu” atamasi keyinchalik boshqa madaniyatlarga ham o‘tgan. Qadimgi yunon, rim va yahudiy xalqlari bu tushunchani o‘z diniy amaliyotlarida turli nomlar bilan ifodalashgan. Masalan, yunonlarda “**agos**”, rimliklarda “**sacer**”, yahudiylarda esa “**kadosh**” so‘zlari tabu ma‘nosiga yaqin tushunchalarni bildirgan. Biz uchun deyiladi, **tabu**ning ma‘nosi ikki qarama-qarshi yo‘nalishda talqin qilinadi. Bir tomondan, u “muqaddas”, “muqaddaslashtirilgan” degan ma‘noni bildirsa, ikkinchi tomondan, “dahshatli”, “xavfli”, “taqiqlangan”, “nopok” degan ma‘nolarga ega. Polineziya tilida tabu so‘zining aksi “**noa**” bo‘lib, bu “oddiy”, “hamma uchun ochiq” degan ma‘noni anglatadi. Shu bois, tabu tushunchasi asosan ehtiyotkorlikni talab qiluvchi, cheklov va taqiqlar orqali ifodalangan bir hodisani bildiradi. Bizning “muqaddas qo‘rquv” iboramiz ko‘p hollarda **tabu** mazmuniga yaqin keladi.[4-11]

Tabu so‘zlarning paydo bo‘lishi jamiyatdagi **ijtimoiy cheklovlar**, **diniy e‘tiqodlar** va **axloqiy me‘yorlar** bilan chambarchas bog‘liq. Inson o‘z xatti-harakatlari yoki so‘zlari orqali



jamiyatdagi muvozanatni buzmaslik, boshqalarni xafa qilmaslik yoki muqaddas narsalarni tahqirlab qo‘ymaslik uchun ayrim ifodalardan tiyiladi. Bu haqida Z.Freyd quydagicha yozgan: tabu cheklovlar aslida diniy yoki axloqiy taqiqlarning o‘ziga xos shaklidir. Ular xudoning buyruqlariga asoslanmaydi, balki o‘z-o‘zidan taqiqlangan deb qaraladi. Axloqiy taqiqlardan farqli o‘laroq, tabu tizimga kirmaydi, ya‘ni u odamlardan umuman tiyilish yoki o‘zini tutishning asosini izohlab bermaydi. **Tabu** taqiqlari hech qanday asosga ega emas, ularning kelib chiqishi noma‘lum. Biz uchun ular tushunarsiz bo‘lsa-da, ularning ta‘sirida yashovchilar uchun tabiiy, o‘z-o‘zidan ravshan hol hisoblanadi.[4-11]

Tabu so‘zlar jamiyatda **ijtimoiy nazorat vositasi** sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Ular insonlarning xulq-atvorini, nutq madaniyatini, hatto fikrlash doirasini tartibga soladi. Sotsiologik nuqtai nazardan, tabu **axloqiy normalarni buzmaslikka undovchi ijtimoiy mexanizm hisoblanadi**. Ingliz tilidagi “swear words” ya‘ni so‘kish so‘zlar jamiyatda salbiy baholanadi va ijtimoiy maqomga zarar yetkazadi.[1-45] Shu bois maktab, televideniye, ommaviy nutq sohalarida bunday so‘zlardan qat‘iy cheklaniladi. O‘zbek madaniyatida esa tabu **kattalarga hurmat, oilaviy tarbiya va diniy e‘tiqodlar** bilan chambarchas bog‘langan. Ayniqsa ayollar va yoshlar nutqida “uyatli”, “nojoiz” so‘zlardan saqlanish madaniy fazilat sifatida qadrlanadi. Shu jihatdan o‘zbek tilidagi tabu so‘zlar faqat taqiqlovchi emas, balki **axloqiy tarbiya beruvchi** ahamiyat kasb etadi.

Xususan, A.A.Reformatskiy qayd etganidek, tabuning o‘rnida qo‘llanilayotgan evfemik birliklarni etnik taraqqiyot bilan bog‘liq deb hisoblaydi. U tabuning paydo bo‘lishiga turli bid‘atlar va xurofotlar sabab bo‘lganligini ta‘kidlab, evfemizmlarning ularning nomini yashirish va yumshatish uchun xizmat qilishini bildiradi.[5-104/105] Shu nuqtai nazardan evfemizm tabuning yumshatilgan shakli sifatida tushuniladi va u jamiyatning madaniy hamda diniy qoidalarini saqlashda vosita bo‘lib xizmat qiladi. R.A.Budagov ham tabuning paydo bo‘lishiga insoniyatning e‘tiqodi turtki bo‘lganligini, shuningdek, bu jarayon ma‘lum ma‘noda tafakkur rivojining asosi ekanligini tan oladi, biroq evfemizmning yuzaga kelishi bu jarayonda muhim omil emasligini hisoblaydi.[2-34] Ya‘ni, evfemizm tabudan kelib chiqadigan cheklovlarni yumshatishda qo‘llaniladi, ammo uning paydo bo‘lishi tabiiy diniy yoki ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog‘liqdir.



Shuningdek, B.Malinovskiy evfemizmlarning paydo bo‘lishini insonning psixologik ehtiyojlari bilan izohlaydi. U tabularni **shaxs va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlovchi vosita** sifatida ko‘radi.[3-16]Shu nuqtai nazardan, evfemizm insonni metafizik yoki ijtimoiy xavflardan himoya qilishga xizmat qilishini qayd etadi. Masalan, o‘zbek tilida “o‘ldi” so‘zi o‘rniga “vafot etdi” yoki “ketdi” iboralari qo‘llanilishi shaxs va oilani himoya qilish maqsadida yuzaga kelgan yumshatilgan ifodadir. Tabular va evfemizmlar jamiyatning axloqiy va madaniy qadriyatlarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Ular shaxsning xatti-harakatlarini tartibga soladi, ijtimoiy cheklovlarni ta‘minlaydi va nutq madaniyatini shakllantiradi. Shu bilan birga, ular jamiyatdagi **ijtimoiy me‘yorlar va diniy qoidalarning** uzviy bir qismi sifatida qaraladi.

O‘zbek va ingliz tillaridagi tabu so‘zlar jamiyatning axloqiy, diniy va madaniy qadriyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. O‘zbek tilida tabu so‘zlarning ijtimoiy sabablari ko‘proq axloqiy-odobiy me‘yorlar asosida shakllansa, ingliz tilida ular diniy taqiqlar va siyosiy to‘g‘rilik tamoyiliga tayanadi. Har ikkala jamiyatda ham tabu so‘zlar ijtimoiy barqarorlik, madaniy uyg‘unlik va nutq madaniyatini ta‘minlovchi muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Allan, G., Burrige, K. Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon. Oxford University Press, 1991.
2. Будагов, Р.А. Лингвистическое изучение табу. Москва, 1975
3. Malinowski B. Magic, Science and Religion. New York: Doubleday, 1948.
4. Freud, S. *Totem and Taboo*. London: Routledge, 1913
5. **Реформатский А.А.** *Введение в языковедение: Учебник для вузов* / А.А.Реформатский; под ред. В. А. Виноградова. 5-е изд., испр. Москва: Аспект Пресс, 2004. 536 с.